

 **iScience® Poland**



MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS

COLLECTION OF SCIENTIFIC WORKS
OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE

**Issue 5(27)
Part 2**

**Warsaw
2020**

Мирзоева И. Э., Қаландарова Д. Д., Нарзуллоева Д. Р.
Бухоро давлат университети
(Бухоро, Узбекистан)

QOROVULBOZOR TUMANI QISHLOQ XO'JALIGINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Аннотация: Ushbu maqolada Qorovulbozor tumanining qishloq xo'jaligi va uning rivojlanishi istiqbollari, undagi ayrim muammolar, ularning yechimi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Калит сўзлар: globallashuv, gidroponika, issiqxona, fermer xo'jalk, dehqon xo'jalik, texnik ekin, cho'l, ekstensiv, tuproq, qishloq xo'jalik, infrastruktura

Annotation: In this article, information related to the agriculture of Kharavulbazar and its perspectives of development and its some problems as well as solutions is described.

Key words: Globalisation, hydroponics, greenhouse, farming, individual farm, technical crops, desert, extensive, soil, agriculture, infrastructure.

Аннотация: В данной статье приводятся сведения о сельском хозяйстве и перспективах его развития в Караулбозорском районе, некоторые его проблемы и пути их решения.

Ключевые слова: глобализация, гидропоника, теплица, земледелие, сельское хозяйство, технические культуры, пустыня, экстерьер, почва, сельское хозяйство, инфраструктура, информация об их решениях.

Prezidentimiz SH. M. Mirziyoyev tomonidan mamlakatimiz ehtiyojini paxta, bug'doy, sholi, makkajo'xori, kartoshka, sabzavot, poliz ekinlari va uzum, olma hamda ozuqa ekinlari bilan atroflicha qondirish va to'liq ta'minlash eng asosiy va o'ta muhim sotsial-iqtisodiy vazifalardan biri qilib belgilangan. Shu maqsadda bir qator chora – tadbirlar ishlab chiqilmoqda.

Bugungi globallashuv davrda qishloq xo'jalik jadal rivojlanayotganligi munosabati bilan har qanday tuproq sharoitida, zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, tejamkor texnologiyalarni qo'llash, gidroponika usullardan foydalangan holda issiqxonalar tashkil etib mahsulot yetishtirish, pirovardida iqtisodiy katta samara ko'rish yo'l-yo'riqlarini ta'lim orqali amalga oshirish asosiy maqsad hisoblanadi.

Bozor munosabatlariga o'tish davrida aholi turmush darajasini yaxshilash, qishloq joylarda ijtimoiy infratuzilma tizimini rivojlantirish kabi masalalar mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda qishloq joylar ijtimoiy infratuzilmasining ahamiyatini ushbu sohaning jamiyat taraqqiyotini o'zida qamrab olishida ko'rishimiz mumkin. Bu esa uning ijtimoiy va amaliy jihatdan dolzarbligini oshiradi.

Qorovulbozor tumani- Buxoro viloyati tarkibidagi tuman bo'lib, markazi Qorovulbozor shahri. Tuman hududi viloyatning eng janubi-sharqiy chekkasida joylashgan bo'lib, shimoli-sharqiy tomondan esa Navoiy, janub tomondan esa

Qashqadaryo viloyatlari bilan chegaradosh. U g'arb tomondan Olot tumani bilan yondosh bo'lsa, shimol tomondan Buxoro tumani bilan qo'shni.

Qorovulbozor tumanida mehnat resurslari (85,1%) ni tashkil etadi. Ayniqsa, o'sib borayotgan aholini oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy bilan ta'minlash, ishsizlar uchun yangi ish o'rinlarini barpo etish masalalari muhimdir. So'nggi yillarda mamlakatimiz rahbariyatining qishloq joylariga, uning ijtimoiy infrastruktura tarmoqlarini rivojlantirishga, qishloq xo'jaligiga bo'layotgan e'tibori bu sohani yanada chuquroq tadqiq qilish uchun asos bo'lmoqda. [2]

Tuproqning hozirgi kundagi holati haqida ham bir oz to'xtalib o'tadigan bo'lsak, ayniqsa, dehqonchilik bilan shug'ullanadigan yerlarda tuproqning holati nochoridir. Aksariyat dehqon-fermer xo'jaliklari va shirkat xo'jalik rahbarlari va umuman dehqonlarining haligacha yuqori dehqonchilik madaniyatiga ega emasliklari ahvolni yanada murakkablashtirmoqda.

Qorovulbozor tuman qishloq xo'jaligini qishloq joylarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki, tuman qishloq xo'jaligida tayyorlanadigan mahsulotlar to'liq qishloq joylarida tayyorlanadi. Tuman qishloq xo'jaligi ko'p tarmoqli xususiyatga ega. Qorovulbozor tumanida 236245,5 mln so'mlik qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirildi (ushbu mahsulotlarning asosiy qismi tumanning qishloq joylari hissasiga to'g'ri keladi).

Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish 2018 yilda- jumladan paxta yetishtirish: fermer xo'jaliklarida 275173 tonna, qishloq xo'jaligi korxonalarida 212108 tonnani tashkil etdi. Don yetishtirish: fermer xo'jaliklarida 387370 tonna, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarda 158567, qishloq xo'jaligi korxonalarida 4321 tonnani tashkiletdi. Kartoshka yetishtirish: fermer xo'jaliklarida 16729 tonna, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarda 195789, qishloq xo'jaligi korxonalarida 107 tonnani tashkil etdi. Sabzavot yetishtirish: fermer xo'jaliklarida 137803 tonna, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarda 554906, qishloq xo'jaligi korxonalarida 6125 tonnani tashkiletdi. [4]

2018 yilda yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotining 52,2 foizi dehqonchilik, 47,8 foizi esa chorvachilik tarmoqlarida yaratilgan. Biroq, agroiqlimiy sharoitlardan, xususan suv bilan ta'minlanganlik darajasidan kelib chiqqan holda bu yerda yer maydonining iqtisodiy salohiyati yuqori emas, intensiv sug'orma dehqonchiligi asosan hududi kichik bo'lgan janubda, tumanning voha qismida rivojlangan, xolos. Qorovulbozor tumanning qolgan katta cho'l qismini esa ekstensiv qishloq xo'jaligi – chorvachilik egallaydi.

Qorovulbozor tumanida atrof-muhitni xususan tuproqni muhofaza qilishni hisobga olgan va unga rioya qilgan holda kompleks ish olib borilishi, tuproqning takroran sho'rlanishi ehtimoli, gipsli tuproqlarni eroziya jarayonlari namoyon bo'lishi mumkinligiga alohida e'tibor berilishi lozim. [3]

Qorovulbozor tuman qishloq xo'jaligida hal qilinishi lozim bo'lgan qator muammolar ham mavjud. Ularni hal qilish mamlakat va mintaqalari ijtimoiy-iqtisodiy hayotida katta ahamiyatga ega. Ushbu muammolar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ✓ sug'oriladigan yerlar unumdorligini oshirish;
- ✓ suvdan tejamkorlik bilan foydalanish;
- ✓ o'simliklarda uchraydigan kasalliklar va zararkunandalarga qarshi kurashni kuchaytirish;

✓ qishloq joylarda mehnat resurslaridan samarali foydalanish;
✓ qishloq sanoati va infrastrukturasi rivojlantirish va h.k.
Tuman qishloq xo'jaligida mavjud bo'lgan katta muammo suvning yetishmasligidir.

Suv tanqisligi muammosini oqilona hal qilish yo'llaridan yana biri suvdan ehtiyotkorlik, tejamkorlik bilan foydalanish, uni isrof qilishga yo'l qo'ymaslikdir. Bu borada qator mamlakatlarda o'tirilgan tajribalardan to'la foydalanishga qaratilgan tadbir-choralarni ko'rish zarur.

Qorovulbozorda dehqonchilik juda uzoq davrlarga borib taqaladi. Ammo bu dehqonchilik shu qadar nochor ediki ba'zan olingan hosil hatto suvning xarajatini ham qoplamasdi. U paytlar bu yergacha Qashqadaryoning bir irmog'i etib kelar xolos. Shunday qiyin bir paytda Qorovulbozorga Amu-Buxoro kanalidan suv keltirilishi haqidagi xabar hammani quvontirib yubordi.

Bu kanaldan suv olish jo'n ish emas edi. Birinchidan, kanalda suvni 52 metr balandlikka ko'tarib beradigan nasos stansiyasi qurish so'ng sug'oriladigan hududlargacha o'nlab kilometr kanallar qazish, suv taqsimlagich inshootlari shuningdek kichik nasos stanstiyalari o'rnatish zarur edi.

Qurilishi mo'ljallangan va "Do'stlik" nomi berilgan yangi nasos stansiyasi jamoa uchun eng yirik inshootlardan biri bo'ldi. Nasos stansiyasi qurilishi nihoyasiga yetganda Qorovulbozor magistral kanali ham qazib bo'lingan edi.

"Do'stlik" nasos stansiyasi Qorovulbozor magistral kanali juda qisqa muddatda 1980 yilning o'zida qurib foydalanishga topshirildi va bu inshootlar bugungi kunga qadar cho'lquvarlar ehtiyojini to'la qondirib kelmoqda. [1]

Qorovulbozor vohasida ko'proq madaniy ekinlar, poliz va sabzavot ekinlari ekiladi. Dehqonchilik qilinib kelinayotgan vohalar holatini yaxshilash hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Qorovulbozor vohasida keyingi yillarda sug'orma-meliorativ ishlarning sifati pasayib ketgan. Yaylov uchun xos bo'lgan o'simliklar turi ayniqsa dorivor o'simlik isiriq ham yo'qolib bormoqda.

Darhaqiqat mavzu yuzasidan o'zimninig xulosa va takliflarimni beraman:

- Qorovulbozor tumani viloyat yalpi hududiy mahsulotining 27,9 foizini, Qorovulbozor tumanining esa 50 foizdan ortig'ini qishloq xo'jaligi tarmoqlari beradi.

- Sug'oriladigan tuproqlarning meliorativ holatini yaxshilash va unumdorligini oshirish uchun ularning mexanik tarkibi, bonitet balli va sho'rlanish darajasiga qarab, organik va mineral o'g'itlarni butun vegetatsiya davrida kiritish usullarini va tadbirlarini ishlab chiqish;

- Paxta, g'alla va boshqa qishloq xo'jalik ekinlarini yerlarga ekish uchun sho'r yerlarni yuvish, tekislash, tuproqlarning namini saqlash to'g'risida tavsiyalarni ishlab chiqish;

- Bog'lardan, sabzavotlar yuqori hosil olish borasida erta bahorda mevali daraxtlarga shakt berish va poliz o'simliklarini parvarishlash bo'yicha agrotexnikaviy tadbirlarni ishlab chiqish;

- Tuman qishloq xo'jaligida intensiv dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlarini rivojlantirish bugungi kunda o'ta muhim;

- Viloyat o'rmon xo'jaligi yordami bilan shamol erroziyasi va gamselning oldini olish uchun ixota daraxtzorlari barpo etish lozim.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi takliflar o'z yechimini topsa, tumanning respublika iqtisodiyotiga tutgan o'rni rivojlanib, yurtimiz dasturxonini qishloq xo'jalik mahsulotlaridan to'kin-sochin bo'lishiga umid qilib qolamiz!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Nazarov I. Q., Allayorov I. Sh. Buxoro geografiyasi. – Buxoro, 1994y. – 67 b.
2. Солиев Б., Шодиев С. Сахродаги мўъжиза.- Тошкент, Шарқ, 2000.- 208 б.
3. Қоровулбозор туманинг геозкологик муаммолари. Тўплам. «География XXI асрда: муаммолар, ривожланиш истиқболлари» мавзусида Рес-публика илмий - амалий анжуман материаллари.-Самарқанд, 2017. - Б. 207-208.
4. Бухоро вилояти статистика маълумотлари. 2019 й, 1-январь ҳолати.

TABLE OF CONTENTS

SECTION: AGRICULTURAL SCIENCE

Babadjanova Sanobar Yo'ldashbayevna, Satipov Gayipnazar Matvafoevich, Tajiyev Zokirjon Rajapovich, Yoqubov G'ayrat Quvandiqovich (Urganch, Uzbekistan) XORAZM VOHASI O'TLOQI ALLYUVIAL TUPROQLARI SHAROITIDA KUZGI BUG'DOY NAVLARINING BARG SATHIGA VA FOTOSINTETIK POTENSIALIGA MA'DANLI O'G'ITLARNING TA'SIRI.....	6
Erezhepova G. T. (Nukus, Uzbekistan) ECONOMIC EFFICIENCY OF CROPPING VARIETIES OF CARROT VARIETIES.....	9
Абдуллаев Д. А., Юлдашева М., Худойназаров Д., Назиржонов И. (Андижон, Узбекистан) ЎРМОН ХЎЖАЛИК ПЛАНТАЦИЯЛАРИ ТУПРОҒИНИ ЭКИШ ОЛДИДАН ФИЗИК-МЕХАНИК ХУСУСИЯТЛАРИНИ ЎРГАНИШ.....	12
Жураев Охунжон, Намозов Хушвақт (Тошкент, Узбекистан) ТОШКЕНТ ВИЛОЯТИ СУҒОРИЛАДИГАН ТИПИК БЎЗ ТУПРОҚЛАРИНИНГ ШЎРЛАНИШ ДАРАЖАСИ, ТИПЛАРИ ВА ЎСИМЛИК ҚОЛДИҚЛАРИНИНГ ТУПРОҚДАГИ МИКРОБИОЛОГИК ЖАРАЁНЛАРГА ТАЪСИРИ.....	16
Каюмов А. А., Караходжаева Г. М., Умаров З. А., Саимназаров Ю.Б. (Андижан, Узбекистан) ҚОҒОЗ ҚОПЧАЛАР БИЛАН ҲИМОЯЛАНГАН ОЛМАНИНГ ПИНК ЛЕДИ НАВИ МЕВАЛАРИ САҚЛАНУВЧАНЛИГИНИ ВА СИФАТИНИ БЕЛГИЛОВЧИ ОМИЛЛАР.....	20
Маликов Азим Неъматович, Қаюмов Бобир Собирович, Алиева Муҳаббат Илхомжоновна (Тошкент, Узбекистан) ҲИНДОҒНИ НАВИ ҲОСИЛЛИ НОВДАЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ ВА ЎЗИНИ ЎЗИ ЧАНГЛАЙ ОЛИШИГА ЎҒИТЛАШ МИҚДОРНИНГ ТАЪСИРИ.....	27
Мирзоева И. Э., Қаландарова Д. Д., Нарзуллоева Д. Р. (Бухоро, Узбекистан) QOROVULBOZOR TUMANI QISHLOQ XO'JALIGINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	31
Ураимов Т., Орипов Г., Турдиева М. (Андижан, Узбекистан) ПРИМЕНЕНИЕ НЕТРАДИЦИОННОГО УДОБРЕНИЯ ПОД ХЛОПЧАТНИК И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА АГРОХИМИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ПОЧВЫ.....	35

SECTION: BIOLOGY SCIENCE

Абдуллаева Барно Атабековна, Умарова Диёра Хасановна, Сапаева Замира Шавкатовна (Ташкент, Узбекистан) ИЗУЧЕНИЕ ВЛИЯНИЯ НИЗКОТЕМПЕРАТУРНОЙ ОБРАБОТКИ ВИНОГРАДА НА КОЛИЧЕСТВЕННОЕ СОДЕРЖАНИЕ ВИТАМИНОВ ГРУППЫ В.....	45
--	----